

**ZARDO'ZLIK USLUBIDA SOVG'ABOP QUTI TAYYORLASH
TEXNOLOGIYASI**

Shohista Mamasoliyeva, Sabina Abdurafiqova

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

***Annotatsiya.** Xalq hunarmandchiligi o'zbek xalqining paydo bo'lishi, shakllanishi, tarixiy rivojlanishi, milliy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan soha bo'lib, ma'naviy, moddiy, madaniy merosimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Yoshlarga xalq hunarmandchiligiga oid ishlarni o'rgatish ularni ma'naviy tomondan tarbiyalashda, o'z xalqining hunarmandchiligi, urf-odatlarini, asriy milliy qadriyatlari bilan tanishtirishda va kasb-hunarga yo'naltirishda katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolada milliy hunarmandchiligimizning eng jozibali turi bo'lgan zardo'zlik san'ati texnologiyasi asosida sovg'abop quti tayyorlash texnologiyasi keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** zardo'zlik san'ati tarixi, sovg'abop buyum, zardo'zlik texnologiyasi, ijodkorlik.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 yildagi "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-77-sonli qaroridagi quyidagi jumlar milliy hunarmandchilikning jamiyatimizning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini belgilab beradi: milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida so'nggi besh yilda mamlakatimizdagi usta hunarmandlar soni 7 barobarga, shogirdlar 9 barobarga ko'payib, sohada band bo'lganlar soni 230 ming nafarga yetdi. Hunarmandlarning xalq amaliy san'ati milliy katalogi yaratilib, faxriy va xalqaro ko'rgazma hamda tanlovlarda g'olib bo'lgan 340 nafar ustalar ushbu katalogdan

o‘rin oldi. Shuningdek, 1,5 mingga yaqin hunarmandlar turizm reyestriga kiritilib, ushbu soha rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Shuningdek qarorda mahallabay ishlash orqali foydalanilmayotgan imkoniyatlarni to‘la ishga solish, hunarmandlar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish tizimini yanada kengaytirish, hunarmandchilik mahsulotlari uchun yangi bozorlarni topish borasida qo‘shimcha choralar ko‘rish, aholini hunarmandchilikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, “usta-shogird” an‘analari asosida mahallalarda yoshlarga hunar o‘rgatish va bandligini ta‘minlash, shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish hamda hunarmandchilikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish ishlari ham ko‘zda tutilgan.

Ma‘lumki, hukumatimizning bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarida mahalliy turizmni rivojlantirishda va xorijiy sayyohlarni jalb etishda sovg‘abop buyumlar sifatini oshirish kabi bir qator vazifalar belgilab qo‘yilgan. Chet ellik sayyohlarning diqqatini tortadigan sovg‘abop buyumlar tayyorlashdagi yangicha uslublardan biri bu zardo‘zlikdir.

Arxeologik qazishmalar davomida yer qatlamlari ostida qolib ketgan qadimiy yashash manzillari va qabrlar o‘rganilganda, ajdodlarimizning I-II asrlardayoq zarbof kiyimlar va zardo‘zi buyumlardan foydalanganliklari ma‘lum bo‘lgan. O‘sha davrlarda zar iplar, bezaklar faqat sof oltin va qimmatbaho toshlardan tayyorlanganligi va ularning kimyoviy turg‘unligi sababli buyum tikilgan matolar chirib ketsa-da, zardo‘zlik usulida tikilgan naqshlar o‘z shaklini yo‘qotmagan.

Ilmiy gipotezalarga ko‘ra, bu qabrlar shohlar, saroy amaldorlari yoki badavlat kishilarga tegishli bo‘lgan. Boy-badavlat kishilar zardo‘zi libos va buyumlardan o‘z boyliklari, kuch-qudratlari hamda shon-shuhratlarini namoyish etish, oddiy xalqdan o‘zlarini ustun qo‘yish maqsadida foydalanishgan. Ehtimol shuning uchun ham o‘sha davrda zardo‘zlik ustaxonalari faqatgina podsho saroylarida joylashgan. Podsholik ustaxonalarida eng sara zardo‘zlar faoliyat yuritgan bo‘lib, ular podshoh yoki uning yaqinlarining buyurtmasiga asosan

chakmon, kamzul, chalvor, poyabzal, belbog‘, salla, kuloh va jul kabi buyumlarni tikishgan. Hattoki eng katta amaldorlar ham zardo‘zi kiyim-kechaklardan birortasini o‘ziga buyurtirishga haqqi bo‘lmagan, ularni podshoning hurmati yoki ishonchiga sazovor bo‘lgan taqdirdagina sovg‘a tariqasida olishlari mumkin bo‘lgan.

Zardo‘zlik ustaxonalarining podsho saroylarida joylashganligi o‘sha davrlarda uning faqat poytaxt shaharlardagina taraqqiy etishiga olib kelgan. Masalan, zardo‘zlik Somoniylar va G‘aznaviylar davrida Buxoroda, Temuriylar davrida Samarqand va Hirotda gullab-yashnagan, Mang‘it amirlari davrida yana Buxoroga ko‘chgan. Xiva va Farg‘ona shaharlarida ham birmuncha rivoj topgan. Ayniqsa, XVIII asr oxirida Buxoro xoni Amir Abdullaxon tomonidan zardo‘zlik xususiy ustaxonalari ochishga ruxsat berilishi boshqa shaharlarga qaraganda Buxoroda zardo‘zlikning gullab-yashnashiga sabab bo‘ldi.

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib, biz quyida zardo‘zlik usulida tayyorlangan quticha tayyorlash texnologiyasini keltiramiz.

Zardo‘zlik texnologiyasi buyum uchun kompozitsion naqsh chizish va uni karton yoki kerakli sirtga tushirishdan boshlanadi. Naqsh chizish ishlarini qisqa muddatda va sifatli bajarishda kompyuter grafikasi uchun mo‘ljallangan dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Zardo‘zlik kompozitsiyalarini kerakli sirt (karton, qalin qog‘oz, teri va h.k.)ga tushirishning axta, kalka va shablon (trafaret) usullari mavjud. Axta usulidan yirik zardo‘zlik kompozitsiyalarini ko‘chirishda, kalka usulidan esa kichikroq zardo‘zlik kompozitsiyalarini kartonga tushirishda, trafaret usulidan esa tayyor qirqilgan kompozitsiyalarni ko‘chirishda foydalaniladi. Qadimda naqshlar xoka usulida ko‘chirilgan. Bizning misolimizda kompyuter grafikasi asosida chizilgan naqsh maxsus tikuvchilik kartoniga kalka usulida ko‘chirildi.

Navbatdagi bosqichda naqsh qirqiladi. Bunda “shuturgardon”, “o‘rdakburun” kabi maxsus qaychilardan foydalaniladi. Bu jarayonda asosan, qaychini emas, balki naqsh kompozitsiyasi tushirilgan kartonni yurgizish kerak, shundagina qaychi bilan qirqilayotgan chiziqlar tekis chiqadi.

Naqsh tayyor bo'lgach, korcho'pga bo'z yoki surp matosi tortiladi. Mato shunchalik tarang tortilishi kerakki, uning ustiga tashlangan angishvona 4-5 marta sakrashi kerak. Bizning misolimizda kopcho'pga bo'z matosi tortildi.

Navbatdagi bosqichda korcho'pga tarang tortilgan bo'z ustidan asosiy gazlama (duxoba yoki velyur) ko'klab chiqiladi va uning ustidan kartondan qirqib olingan naqsh asosiy gazlamaga ko'klab biriktiriladi. So'ngra buyumning va naqshning turiga qarab zardo'zlik choklaridan biri (guldo'zi yoki zamindo'zi) tanlanadi va tikiladi. Bizning misolimizda asosiy gazlama sifatida zardo'zlar eng xush ko'radigan taqir velyur matosidan foydalanildi. Tanlangan naqsh turi islmiy naqsh bo'lganligi sababli, guldo'zi chok turi tanlandi.

Asosiy chok tikilgandan so'ng, bezak choklar (pulakchado'zi, qobuli) va zado'zlik bezaklari (likkak, vag'ar) tikiladi. Barcha ishlar bajarilgandan so'ng, zardo'zlik buyumi teskari tomondan yengilgina yelimlanadi. Buning uchun un va suvdan tayyorlangan aralashmadan foydalaniladi. Yelim qurigach, buyum korcho'pdan yechib olinadi. Bizning misolimizda maxsus gazlama yelimidan foydalanildi. Zardo'zlik bezagi sifatida esa metrli bezak toshlardan foydalanildi.



1-rasm. Zardo'zlik uslubida bezatilgan sovg'abop quti.

Yuqorida bayon etganimiz zardo'zlik usulida bezatilgan sovg'abop quticha tayyorlash texnologiyasini nafaqat hunarmandlar uchun, balki oliy o'quv yurtlari talabalari va kasb-hunar maktablari o'quvchilari uchun ham tavsiya etiladi. Bu kabi ishlar yoshlar o'rtasida milliy hunarmandchilik va zamonaviylikni uyg'unlashtirish ishlarini targ'ib qilishga hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini, kreativ g'oyalarini namoyon qilishga imkon beradi. Zero, bu sifat va fazilatlar

yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 yildagi "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-77-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.04.2023 yildagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.07.2023 yildagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-sonli qarori.
4. Jabborova D. Zardo'zlik texnologiyasini o'qitish uslubiyoti. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Bilim", 2005.
5. Faxriddin o'g'li, F. M. Computer graphics in the sphere of drawing details: enhancing creativity and precision. // "Innovation in the modern education system", 2024 yil 4(37).
6. Faxriddin o'g'li, F. M. Exploring the specific innovations of computer graphics in drawing science. // "Научный Фокус", 2024 yil 1(10).
7. Mamasoliyeva Sh.L. Xalq hunarmandchiligi. O'quv qo'llanma. SamDU nashriyoti 2020 yil.
8. Faxriddin o'g'li, F. M. Fin ta'lim tizimining global o'qitishda tutgan o'rni. // "Innovative developments and research in education", 2024 yil 3(26).
9. Faxriddin o'g'li, F. M. Dunyo ta'lim uslublaridagi sara durdonalar. // "Научный Фокус", 2023 yil 1(7).
10. Shomirzayeva M. Zardo'zlik hunarini o'quvchilarga o'rgatishda milliy an'analarni ahamiyati. "Jahon sivilizatsiyasida Boysuning moddiy va ma'naviy madaniyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmoy maqolalar to'plami. Termiz – 2019.